

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. №

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari uchun gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil

31 - iyul - 6 - avgust N:31 (66572)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

«TA'TIL BIZ UCHUN EMAS...»



2-BETDA

«SO'TKA»GA PUL BOR, GAZETAGA-CHI?»



4-BETDA

ANDOZAGA ARZIRLI



8-BETDA

SOG' YURAK



Qiziltepalik yosh sportchilar haqida gazetaning 8-sahifasida o'qiysiz.

TOG' YURAK



Ijodkor inson uchun ozgina e'tibor, pichagina rag'bat uning ijodsiz yashay bo'ladi. Kelajakda topishiga mustahkam ishonavering.

O'quvchi-yoshlarning eng sevimli nashri bo'lgan «Tong yulduzi» intilayotgan ijod. ummoni kelyapti. ham ilk mana shu chiqqanida ichimga Balki o'shanda shunchaki havas



«TONG YULDUZIGA RAHMATI!»

xodimlarining e'tiborlari bilan bog'lashimga sabab bo'lganini yaxshi bilaman.

Bola qalbidam ungan maysalarimni gullab gurkiramog'i uchun kuyungan gazetaning barcha xodimlaridan minnatdorman. O'tgan yillar mobaynida o'nlab maqola va she'rlarim aynan shu gazeta orqali dunyo yuzini ko'rdi. 2004-yilda «Kiprikdagi sog'inch» nomli ilk she'riy to'plamim nashr etilganidan bir quvongan bo'lsam, 2005-yilda «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi hamda «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati hamkorligida tashkil etilgan «Kelajak ovozi» Respublika yoshlar mega-tanlovida ishtirok etib, badiiy ijod va jurnalistika nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritganimda, o'n chandon sevindim. Qo'lga kiritgan yutuqlarimdan ruhlanib, yana ijodga berildim. 2006-yil ko'klamda «Yuragimda yuz ochgan bahor» nomli ikkinchi kitobim ham chop etildi.

Qo'lga kiritgan ozmi-ko'pmi yutuqlarimda birinchi navbatda ota-onamning, qolaversa, «Tong yulduzi»ning hissasi katta. Tahririyatdagi ijodkor opalarimga havas qilib, hech ikkilanmay kelajakda jurnalist bo'lishga ahd qildim. Ijodning naqadar mashaqqatli ekanligini, bu yo'lda faqat o'qishim, izlanishim lozimligini yaxshi bilaman. Maqsadimga yetishimda ota-onam va ustozlarim duolaridan umidvorman.

Sadoqat DADAYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani.

SHEROBODLIK KURASHCHI ONALAR

Surxondaryoning tog'li Sherobodidamiz. Bu yerga qadam qo'yishimiz bilan sportchi bolalarga duch keldik. Ular ko'chalarda, yam-yashil maydonlarda miriqib to'p surishyapti. Eng qizig'i, bu yerning ayollari ham bolalariga qo'shilib sportchi bo'lib ketishgan ekan.

Nilufar opa Yoqubova, Dilfuza Ibrat opa Qo'shmoqova juda yaxshi kurashchi ekanlar. Ular kurashda raqibni aldash, yelkadan oshirish usullarining hadisini bilisharkan. Ular viloyatda ayollar o'rtasida o'tkazilgan «Onalar sog'ligi-bolalar boyligi» kurash musobaqasida qatnashib, sovrin bilan qaytishibdi.

Dilnoza Abdurasulova, E'tibor Hurraromova esa tumandagi eng yetakchi voleybolchi qizlar sifatida tanilgan. Bu yerda biror bir bayram yo'qki, sport musobaqalarisiz o'tsa: «Chillak», «Oq suyak», «To'qqiztosh», «Ko'pkari»... Ha-ya, ko'pkari musobaqalarida Mamatqulovlar sulolasi yetakchilikni manaman degan chavandozlarga bermay kelmoqda. Asadulla, Xayrulla, Ismatulla, Mansur va Bobomurod nafaqat Kampirtepa qishlog'ining Qo'hitang tog'larida, balki Boysunning Sayrobida ham, Sariosiyoning Dashnaboti-yu Qiziriqning Bobotog'ida ham tanilgan. Qayerda ko'pkari bo'lsa, uloq ularniki...

Ulash aka Sattorov tumanning 14-o'rta maktabida 31 yildan beri jismoniy tarbiya fanidan dars berib kelmoqda. Sportning yengil atletika turi bilan shug'ullanadi. Ularning shogirdlaridan Behzod Ashurov hozirda Termiz jismoniy tarbiya institutining 3-kursida tahsil olyapti. U kikkboxing bo'yicha 2ta kumush, 1ta bronza medal sohibi.


-Bola olti yoshga yetganda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga tayyor bo'ladi. Sport insonga eng to'g'ri yo'lni tanlashda yordam beradi,-deydi Ulash aka. -Bolalarimiz Olimpiada o'yinlariga chiqsa, Jahon chempionlari bo'lsa, ne ajab. Axir biz Alpomish avlodlarimiz-ku.

Dilrabo Xonimova tumandagi 11-o'rta maktabning 11-sinfida o'qiydi. U tuman bo'yicha o'tkazilgan shaxmat musobaqalarida har doim g'olib bo'ladi.

-Ustozim Ergash aka Jabborov menga debyutlarni, o'yin usullarini, hujum va himoya texnikasini o'rgatadilar. Shaxmat kishini chuqur o'ylashga, mulohaza bilan ish yuritishga undaydi. Xudo xohlasa, Toshkentga o'qishga boraman. Yaxshi o'qib, tanilaman. Sherobodimizni butun dunyoga tanitadigan yaxshi farzand bo'laman,-deydi Gulrabo.

Xullas, sherobodlik sportchilarning intilishlari, orzu-istaklari bir olam. Ezgu istaklar bilan yashashga nima yetsin?!

Umida SADATOVA.



ISTIQLOLIM BERGAN IMKONIM

Ota-onalarimiz, buva va buvijonlarimizdan eshitgan

Mustaqillik mening tasavvurimda

xotiralarimiz, hikoyalarmiz bo'lmaganda, biz yoshlar istiqloolning qadriga yetmagan bo'lardik, nazarimda.

Onamning aytishlaricha, avvallari ularning bilim olishlari uchun sharoitlar yetarli bo'lmagan ekan. Ular faqat maktablarda tahsil olishgan, texnikum (hozirgi kasb-hunar kollejlari)larga esa o'zlashtirishi pastroq

bo'lgan sho'x va o'yinqaroq o'quvchilarni yuborishgan ekan. Hozirgi kunda respublikamizning turli burchaklarida ochilayotgan zamonaviy uslubdagi litsey va kollejlarning sanog'i yo'q. Qayerda o'qishni, qanday kasb egasi bo'lishni o'quvchilarning o'zlari hal qilishadi. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik biz yoshlarga keng yo'llar ochib, tanlash imkonini berdi.

Samarqandlik Bobur Ubaydullayev yurtimiz mustaqil deb e'lon qilingan kunda tavallud topgan. U Qo'shrabot tumani, Istiqbol qishlog'idagi 16-maktabning 7-sinfida a'lo baholarga o'qidi. Endi o'qishini Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyida davom ettirish niyatida poytaxtga kelgan.

-Maktabingiz, ustozlaringiz, sinfdoshlaringizni ko'zingiz qiyib, qanday tashlab keldingiz? - so'radik undan.

- To'g'ri, ular bilan xayrlashish juda og'ir, albatta. Lekin puxta bilim olib, kelgusida o'z niyatlarimga yetishishim uchun ham mana shu maskanda o'qishni orzulayapman-da. Chunki men kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman. Lekin maktabimiz kutubxonasi javonlaridan faqat ijara kitoblarnigina topishim mumkin. Badiiy kitoblar yo'q hisobi.

Hozirgi kunda respublikadagi tengdoshlarimizning aksariyatini o'z saflarida jipslashtirayotgan «Kamolot» hamda «Kamalak» tashkilotlari haqida hech bir tasavvurga ega emasmiz.

O'g'il bolalar orasida sportga qiziqmaydiganlarini topish amri mahol. Ammo


men sportga emas, bo'sh vaqtimni ko'proq bilim olishga, til o'rganishga sarflayman. Adabiyot, tarix, geografiya fanlariga qiziqaman. Ingliz va rus tillarini mustaqil ravishda o'rganyapman. Yana, qo'shiq aytishni yoqtiraman. Qo'shiq xirgoyi qilsam, ishlarim unadi.

Do'stlarim maktabimiz qoshida tashkil etilgan katate to'garagiga a'zo bo'lishgan. Karate ishqibozlari ko'pchilik, ammo sport zalimiz torroq-da...

Qishloq bolalari maktabdan keliboq mol-holga qarashadi. Sigir-buzoqlarni haydab, qirga chiqib ketishadi. «Istiqbol»imizning qiyofasini yuqoridan bir ko'rsangiz edi... Siz ham chiroyiga she'r yozib yuboradingiz. Masalan, mana bunday:

Tiniq osmonida,
Oyi yaraqlar.

Zulmatni yoritib,
Yorqin charaqlar.
Oltinqanot qushlar,
Guvillab kezar.



Yulduzlar jimirlab,
Samoni bezar.

Havosi shifobaxsh,
Suvlari naq bol.
Tunda ham kunduzday,
Go'zal «Istiqbol».

-Boburjon, bu suhbatimizni respublikadagi juda ko'plab tengdoshlaringiz o'qishadi. Ularga nima degan bo'ladingiz?

-Mustaqilligimiz bergan imkoniyatlar, shart-sharoitlarga javoban yaxshi o'qishsin, yoshlikdanoq biror kasb-hunarning boshini tutishsin...

-Bu nasihatlaringizga o'zingiz ham amal qilyapsizmi?

-Albatta, hozirdanoq kelajak rejalarimni tuzib qo'rganman. Puxta bilim olib, mohir jurnalist bo'lsam, Nodir JONUZOQ kabi dolzarb, qiziqarli mavzularda ko'rsatuvlar olib borsam, deymen.

Nargiza AKBAR qizi suhbatlashdi.

«TA'TIL BIZ UCHUN EMAS...» OQDARYONING FAXRI

Yozgi ta'til kunlarining asosiy qismi ham o'tib boryapti. Lekin ta'til biz «Jo'shqin bolalar» estrada va ball raqslari jamoamiz a'zolari uchun emas. Chunki bu davrda bizning mashqlarimiz, konsertlarimiz ko'paygandan ko'payadi.

17-iyun kuni Davlat Musiqa Saroyida 2 soatlik konsert dasturlarini namoyish etdik. 3 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan yosh raqqos va raqqosalarimiz tayyorlagan rang-barang dasturimizdan ispan, tojik, o'zbek, rus, grek xalqlari raqslari o'rin olgandi. Yig'ilganlar, ayniqsa, xorazmcha raqslarimizni katta qiziqish bilan kutib olishdi.

21-iyunda esa Samolyotsozlar shaharchasida joylashgan 22-maktab qoshidagi oromgoh dam oluvchilariga katta konsert qo'yib berdik.

Nuroniy otaxon-u onaxonlarimiz ko'ngillarini olishni ham unutganimiz yo'q. Yaqinda ular uchun katta dastur namoyish etdik. Bitiruv oqshomida ijro etgan raqslarimizni tomosha qilgan 161 -maktab bitiruvchilari ham bizni olqishlarga «ko'mib tashlashdi». Jamoamizning tashkil topganiga 5 yildan oshdi. Shu fursat ichida talaygina yutuqlarni qo'lga kiritdik. «Yangi avlod» bolalar raqslari festivali laureati bo'ldik. 2004-yilda esa Tamaraxonim va Igor Maisëyev tavalludining 100 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan bolalar raqslari festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etdik.

Xullas, bizning quvnoq yozimiz ham chakki o'tayotgani yo'q.

Buning uchun ustozimiz, xoreografimiz Marina Viktorovna Gramovadan behad minnatdormiz. Chunki u 60 nafardan ziyod o'g'il-qizni jipslashtirib, ular qalbida



san'atning bu turiga qiziqish uyg'ota oldi.

Alisa KOVALENKO,
Toshkent shahar, Mirzo
Ulug'bek tumanidagi
49-maktabning
5-«G» sinf
o'quvchisi.

«KAMOLOT» VA «YANGI AVLOD» OROMGOHLARDA

Jazirama kunlarda tinib-tinchimagan «Kamolot» YIH Toshkent viloyati bo'limi xodimlari «Yozni «Kamolot» bilan!» deb nomlangan aksiyani o'tkazmoqdalar. Bu aksiyada «Yangi avlod» media markazi ham hamroh bo'lib, birinchi bekati Sijjak qishlog'ida bo'lib o'tgan bo'lsa, navbatdagisi Parkent tumani «Qo'sh-chinor» istirohat bog'ida turli musobaqalar, tadbirlar asosida bo'lib o'tdi. «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs dastasi qishloq bolalarini xushnud qildilar. Keyingi manzil «Boychechak» oromgohi bo'lib, unda 6 ta guruhda 300ga yaqin bolalar dam olishar ekan. Bir kunlik safar mazmunligi bilan esda qolarli bo'ldi. Ertangi kunda yana boshqa oromgohlar rejada turibdi. Bunday tadbirlarni uyushtirayotgan «Kamolot» YIHga minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Nargiza MUHIDDINOVA,
«Yangi avlod» media markazi a'zosi.

Samarqanddagi 45-ixtisoslashtirilgan litsey-maktab o'quvchilari nafaqat tuman, balki viloyat miqyosida o'tkaziladigan ko'rik-tanlov va bellashuvlarda muntazam ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

Ana shu litsey o'quvchilaridan Munira Otaboyeva yaqinda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «Respublika ijodkor-ixtirochi bolalar» tanlovida ishtirok etdi. U «Qand lavlagi va tarvuzdan kichik hajmda saxaroza olish» mavzuidagi ma'ruzasi bilan qatnashib, 1-o'rinni egalladi. Bu tanlovga Respublikamizning turli viloyatlaridan yoshlar kelgandi. Hay'at a'zolari, barcha ishtirokchilar ichida Muniraning tirishqoqligi, aql-zakovati, intiluvchanligi bilan ajralib turganini qayta-qayta ta'kidlashdi.

Samarqand nomidan ishtirok etgan bu qiz tanlovning viloyat bosqichida ham mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritib, tashkilotchilar tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Tirishqoq qizning bu yutug'i butun Oqdaryoni shod etdi. Tanlovda g'olib bo'lgani uchun Munira oliy o'quv yurtiga yo'llanma ham oldi. Bu esa mustaqil hayotga qo'yilgan mustahkam asos bo'ldi.

«Qand lavlagi va tarvuzdan shakar ishlab chiqarish» mavzuidagi loyiham juda oddiy ko'rinishi mumkin, lekin uning zamirida ekologik muammo va iqtisodiy yotibdi. Ya'ni, yozda ayni pishiqchilik davrida bizning tumanimizda tarvuz-qovun ko'p bo'ladi. Ko'pincha, poliz ekinlarining iste'molga yaroqsiz bo'lib qolganlari axlat sifatida chiqarib tashlanadi. Bu esa tabiatning ifloslanishiga olib keladi. Unday joylarda kasalliklar ham ko'payadi. Ana o'sha qovun-tarvuzlardan saxaroza (shakar) ishlab chiqarish mumkin. Bu, birinchidan - ekologiyani ifloslanishdan asrasa, ikkinchidan - iqtisodiy manfaat keltiradi. Mening kelajakda ana shunday saxaroza ishlab chiqaruvchi zavod qurish niyatim bor, - deydi Munira loyihasi haqida kuyunib gapirarkan.

Ha, Munira «Doimo olg'a» shiori bilan yashaydi. Uning orzulari cheksiz... Orzulari osmon qadar bu qizga barcha istaklari ijobat bo'lishini tilaymiz.

Guljahon OTABOYEVA,
Oqdaryo Pedagogika kolleji, 2-bosqich talabasi.

Aziz bolajonlar! Peshtoglari naqshinkor baland-baland imoratlarini kimlar qurayotganini yaxshi bilasiz-a? Qo'li gul binokorlar, deysizmi? Albatta shunday. Ularning o'z kasblariga sadoqati tufayli shahar-u qishloqlarimiz kundan -kunga chiroy ochmoqda. Poytaxtimizning muhtasham Navoiy ko'chasida joylashgan 159- qurilish tresti ochiq aksiyadorlik jamiyati yaqinda ellik yoshga to'lar ekan. Mustaqillik maydoni, talabalar shaharchasi, turli ta'lim maskanlarida, istirohat bog'larida bunyodkorlik ishlarini olib borayotgan ushbu ochiq aksiyadorlik jamiyatidagi quruvchi aka -opalalaringiz o'z kasblarining sir-u asrorlari haqida bizga to'liqinlanib so'zlab berishdi. Ayni kunlarda ular Mustaqilligimizning 15 yilligi arafasida foydalanishga topshirilayotgan binolarda qizg'in ish pallasida ekanlar.

MEHNATNING MEVASI- QADR

- Jamoamizda 1100ga yaqin turli millat vakillari bir oila a'zolaridek mehnat qilishmoqda. Mustaqilligimizning 15 yilligini munosib kutib olish maqsadida Mustaqillik maydoniga yangi favvoralar o'rnatish, Alisher Navoiy nomli istirohat bog'idagi ko'rgazmalar pavilioni, Toshkent Texnika Universiteti qoshidagi sport majmuasi, Sharof Rashidov ko'chasida joylashgan yo'laklarni qayta ta'mirlash va qizil granitdan ishlanayotgan ko'rkam devorlar hamda talabalar

BINOKORLIK- BUNYODKORLIKDIR

favvoralar yonida qiyqirishib o'ynayotganliklarini, cho'milish havzalarimizda mazza qilib cho'milayotganliklarini ko'rganimizda mehnatimizdan g'ururlanib ketamiz, -deydi

Boshqaruv raisining I-o'rinbosari **Sayfiddin Sirojiddinov**.

- Ushbu sohada 21 yildan buyon ishlayman. Shu yillar ichida oddiy ishchidan bosh muhandislik vazifasigacha ko'tarildim. Mehnat insonga baxt keltirishi haq gap ekan. Ayni kunlarda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashabbusi bilan 200 o'rinli yopiq turdagi cho'milish havzasini bunyod etayapmiz. Bu binokorlarimizning yurtimiz to'yiga munosib sovg'asi bo'ladi, -deya ta'kidlaydi 8- qurilish boshqarmasi bosh muhandisi **Muhammadjon Ahmadjonov**.

«O'zbekiston mustaqilligining 10 yilligi» ko'krak nishondori, «Shuhrat» medali sohibi **O'ktam Turg'unboev** 24 yildan buyon binokorlik kasbini ardoqlab kelayotgan ekanlar. Ashurali

Qodirov, Faxriddin Nuriddinov kabi shogirdlarining mehribon ustozlarga kasb sirlarini qunt bilan o'rgatmoqda.

-Tasavvur qiling-a, kechagina quruq bo'lgan yer o'rnida bugun hashamatli bino qad rostlasa. Xuddi mo'jizaning o'zi.

O'ktam aka to'g'ri aytadilar. Bir-biridan go'zal savlat to'kib turgan koshonalarni ko'rib, qo'li gul binokorlarning mehnatlariga tasannolar aytmay ilojingiz yo'q.



Mustaqillik qurilishlarida



shaharchasidagi yopiq cho'milish havzalari kabi bir qator qurilishlarda ishlar yakuniga yetay deb qoldi. Millionlar emas, balki bir necha milliard so'mlik qiymatlarga ega bo'lgan go'zal binolar o'z ko'rki bilan ko'zni qamash tiradi. Bolajonlarimizning



MEN ULG'AYIB, SHOIR BO'LAMAN!

Doniyor Alixonov Poytaxtimizning Hamza tumanidagi 255-maktabning 4- «V» sinfida «a'lo» baholarga o'qiydi. U yoshligidanoq she'rlar mashq qiladi. Vatan, ona, do'stlik kabi tuyg'ularni ulug'lashga intilayotgan tengdoshingizning ilk mashqlari sizni ham aslo befarq qoldirmaydi. Keling bolajonlar, Doniyoroga hammamiz birgalikda yanada yuksak ijodiy parvozlarni taylaylik.

Havas

KUCH VA AQL

«Sog' tanda - sog'lom aql»,
Bordir elda shu naql.
Gohi o'yab qolaman,
Xayollardan tolaman.
Kuch zo'rmi yoki aql?
Kim zo'r polvon yo aql?
Aql kunda kerakdir,
Doim senga tirkakdir.
Axir kuch ham kerak-ku,
Avlodim sher bilak-ku,
Aql va kuch bir bo'lsa,
U yengilmas tilak-ku!
Men ikkisin tanladim,
Shu to'g'ri yo'l angladim.
Kuch va aql jismimda,
Dadil qadam tashladim.



DO'ST

Senga sodiq do'st bo'lar,
Siringni sotmaydigan.
Og'ir kunda yelkadosh,
Aslo tosh otmaydigan.

Doniyor ALIXONOV.

BUGUNIMIZ – ERTANGI TARIX

-O'zbek xalqi bolajon xalq. Ularni yayrab kamolga yetishlari, baxtli kelajagi uchun bunyod etilayotgan qanchadan-qancha binolarning qurilishida qatnashdim. Brigadamiz 10 kishidan iborat. Ravshan Akbarov, Vladimir Grevinsev, Leonid Boldinko kabi hamkasblarim bilan hamjihatlikda mehnat qilayapmiz, -deydi quvonch bilan **Galina Russkix**.

Naqshinkor Ko'rgazmalar pavilionining har bir peshtoqiga g'oyat nafislik bilan jilo berilmoqda. Bino qurilishida yurtimizning har go'shasidan kelgan 100 nafardan ortiq mohir ustalar mehnat qilmoqdalar. Islom Norbekov, Farhod Xushnazarov, Yodgor Sultonov kabi quruvchilarning o'z kasbiga sadoqati tufayli har bir terilgan g'ishtda beqiyos mehr mujassam. Eng muhimi, barcha turdagi qurilish materiallari Ohangaron, Bekobod, Samarqand, G'azalkent kabi shaharlarimizdan keltirilmoqda.

Darhaqiqat, inson aql zakovati ila kelgusi nasllarimizga mustahkam poydevor qo'yilyapti. Demak, bugungi inshootlar tarix bilan bo'ylashmoqda, binokorlar qo'lida sirli-sirli so'zlashmoqda.

Qalbi ezguliklarga limmo-lim to'lgan, bir zum mehnat charchog'ini bilmagan binokorlarga sog'lik-omonlik tilab, yurtimiz sizlarning mehnatlaringiz tufayli yanada chiroy ochaversin, deya xayrlashdik.



Jamila ERDONOVA.

Suratkash: **Vitaliy MYASNIKOV.**

IKROMJONNING BOG'CHASI

7 yoshga endigina to'layotgan Ikromjonning ota-onasi sportchi. Otasi taniqli sport jurnalisti bo'lsa, onasi shifokor, shuningdek, mohir suzuvchi ham.

Keling, Ikromjon kim ekan-a, deya sizlarni ko'p o'ylantirmay, bu bolakay bilan tezroq tanishtira qolaylik: **Sog'lomjon - polvonjon** «O'zim, o'zim ayta qolay, kim ekanligimni», deb shoshib qoldi kichik chempion Ikromjon. Biz yuvvoshgina bu boladan, rosti bunday dangallikni kutmagandik.

Men poytaxtimizning M. Ulug'bek tumanidagi 113- bolalar bog'chasining tarbiyalanuvchisiman. Har kuni tongda shirin uyqumdan uyg'onib, dadam bilan yugurish yo'lakhasiga shoshaman. Oyim bilan cho'milishga boramiz. Hozir mening bo'yimni ko'rganlar: «juda kichkina -ku», deb aytishadi. Ammo ular mening chempion ekanligimni bilishmaydi. O'tgan yili maktabga borishim kerak edi, lekin bog'cha mudiramiz: «yana bir yil seni boqaylik, chempion bo'lib bergin», deb ruxsat berishmadi. Yozning eng issiq kunlarida bog'chamizda «Sog'lomjon - polvonjon» teatrlashgan sport musobaqasi bo'ldi. O'rtoqlarim Doniyor, Yulya, Anvarbek va Valeriy bu musobaqada qatnashib, yana chempion bo'ldik. O'shanda bog'cha mudiramiz bizga o'yinchoqlar va ko'p sharbat berdilar. Chempionlar shunday ovqatlanishi kerak, dedilar.

Ochilib-sochilib gapirayotgan chempion bolacha birdan deraza tomonga qarab, shoshib qoldi. O'rmdan turdi-da, bolalar tizilishib turgan maydonga yugura ketdi.

Ortidan boqib, biz ham ochiq sport maydonidagi yangroq kuyga quloq soldik. Mudira Munira Ahmedova hayronligimiz boisini tushuntirib:

«Bolalar ertalabki badantarbiyani shunday musiqa bilan bajarishga o'rgananlar, - deydi xotirjamlik bilan.

-Har kuni-ya, - deymiz ishongimiz kelmasdan.

Maskanimizda ta'lim - tarbiya olayotgan 308 nafar bolajonlarning barchasi sporsevar desam, aslo adashmayman. Ularning 19 nafar tarbiyachisi ham yaxshigina sportchidir. Chunki bog'chamizda tong sport bilan boshlanadi. Mavsum sport musobaqalariga juda boy. Shaxmat-shashka, stol tennisi, futbol, karate deysizmi, xullas, bari-barida bolajonlarimiz dadil qatnashadilar. Bog'chamizni ota-onalar fayzli dargoh deb aytishadi. Tevarak-atrofi toza, ozoda. Ta'mirga muhtoj joyimiz yo'q. Har tong ularni yetaklab kelayotgan onalarining yuz-ko'zlaridagi ishonchdan biz madad olamiz. Hatto dam olish kunida ham katta eshik oldida bolasiga: «ana ko'rdingmi, hech kim yo'q, bugun dam olish kuni», deb aytayotganlariga guvoh ham bo'lganmiz.

Biz kichik chempion Ikromjon bahona bu yerga kelganimizga afsuslanmadik. Yurt farzandlarining buguni quvnoq, ertasi porloq ekanligidan faxrlandik.

Ortg'a qarab: qaniydi maktabgacha ta'lim muassasalarining barchasida ham ko'ngil shunday so'zlasa, dedik.

Xurshida BOYMIRZAYEVA.

MAHALLADA NIMA GAP?

Karim ota 70 yoshniyam ortda qoldirib, 80 yosh bilan yuzlashish arafasida turibdilar. Otaning tabarruk yoshidayam xotiralari yaxshi, ko'zlari ravshan ko'radi, o'zlari bemaol yuradilar. Mahallaning obro'si bo'lib tanilgan Karim **Qadriyat** otaning uyiga har xil insonlar kelib turadilar. Shu sabab ham ota mahallada nima gap ekanligini hammadan avval biladilar. Keksa otaxonning har bir kuni savob ishlarga, yaxshi maslahatlarga to'la o'tadi. Darvoqe, ota hayoti davomida katta amaldor bo'lib ishlaganlari yo'q. Juda yoshligidan onadan ajradilar. Bolalikdan og'ir ishlarni qildilar, uyquga to'yamasdan, ovqat yemasdan ishlagan kunlari ko'p bo'ldi. Mahalla ahli, qarindosh-urug' «bu bola o'lib qoladi-ku», deb achinishdi. Yo'q, mehnat Karim otani o'ldirmadi, aksincha, hayotga qattiq bog'laverdi. Ota qayerda ishlamasin, halollikka o'rgandi, birovning g'iybatini qilmadi.

Mahallada o'zbek xalqining urf-odatini, an'alarini, bag'rikengligini ko'pchilikka ibrat qilayotgan otaxonga mening ham bir kuni ishim tushdi...

«Karim ota, - deb katta yo'l bo'yidagi fayzli xonadon eshigini taqillatdim. Hadeganda javob olmagach, har xil xayollar bilan sirlasha boshladim. Hovlidan, «kim-u», degan ayol kishining ovozi eshitib, dadillashdim.

«Assalomu alaykum, Karim ota uydamlar?»

Bu odatga o'rganib ketgan ayol: «Hozir chaqirib chiqaman, - deya eshikni sekin yopib, ortiga qaytdi.

Sal o'tmay, yuzi nurga to'la ota biz bilan eski tanishlardek so'rasha ketdilar. Gap yana o'sha tabib jiyani haqida ekanligini bilgach: «Ular yolg'onchilikdan sirayam qo'rqmay qo'yishdi, birovning haqi buyurmaydi, degan gapga ishonishmayapti chog'i, - deb bizni tinchlantirdilar. - Ertalab kelinglar-chi, ularga ko'p aytgan gaplarimni yana aytarman, - deganlaricha, biz bilan og'a-inidek xayrlashdilar. Karim otaning gap-so'zlaridan quvondik. Tezkor zamonimizda qadriyatimiz va an'alarimizni yo'qotmay, birgina shirin kalomi ila mahalla ahliga o'rnak bo'lib yashayotgan otaxonga uzoq umr tilab, 100 yosh ham sizga ato etsin, deb tilak bildirdik.

Hosiyat ISOMIDDINOVA,

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 7- o'rta maktabning mehnat ta'limi o'qituvchisi.



**O'LKAMIZDA AYNI YOZ,
U O'TMOQDA JUDA SOZ.
FAQAT KUN ISSIG'IDAN,
TERLAB KETYAPMAN BIROZ.**

tinchlantirdilar. - Ertalab kelinglar-chi, ularga ko'p aytgan gaplarimni yana aytarman, - deganlaricha, biz bilan og'a-inidek xayrlashdilar. Karim otaning gap-so'zlaridan quvondik. Tezkor zamonimizda qadriyatimiz va an'alarimizni yo'qotmay, birgina shirin kalomi ila mahalla ahliga o'rnak bo'lib yashayotgan otaxonga uzoq umr tilab, 100 yosh ham sizga ato etsin, deb tilak bildirdik.

QUYMOQLI PIROG

Kerakli masalliq: 1 kosa un, 6 dona tuxum, 0,5 choy qoshiq iste'mol sodasi, tuz, 1 piyola qiyma, 1 piyola guruch, 3 dona o'rtacha kartoshka, 2 dona bodring, 3 dona pomidor va oshko'klar.

Tayyorlanishi: qiymani yog'da ozroq qovurib olib, tuz sepib, past olovda 10 daqiqaga dimlanadi. Qaynatib pishirilgan kartoshkani ezib, pyure tayyorlab qo'yiladi. Guruchni yuvib, qizigan yog'ga solib, birrov qovurib, unga 1 piyola suv qo'shib, 10 daqiqa dimlanadi. (Qiyma, guruch va kartoshkaga ozroq tuz solish kerak). Pomidor, ko'kat, bodringlar to'g'ralib, salat tayyorlanadi.

Tuxum boshqa idishga chaqilib, yaxshilab aralastiriladi va iste'mol sodasi qo'shiladi. Uning ustiga un qo'shilib, suyuq, ya'ni, quymoq xamiri qoriladi. Ta'bga ko'ra xamirga bir dona Galina Blanka bo'lagini qo'shsa bo'ladi. Tovada quymoq pishirib olinadi. Tayyor bo'lgan 5-6ta quymoqlar navbatma-navbat taxlanadi. **Tartibi shunday:** quymoq ustiga pyure surtiladi, yana quymoq, so'ng ustiga qiyma solinadi, yana quymoq quyib, ustiga salat solinadi, to'rtinchi qavat quymoqqa guruch solinib, eng usti quymoq bilan yopiladi.



**Ochil
dasturxon**

Yosh pazandalarga eslatma:

Qizlarjon, agar uy sharoitida pishiriqlar pishirmoqchi bo'lsangiz-u, lekin kerakli masalliq uyingizda bo'lmasa, u holda mavjud bo'lgan masalliqlardan qo'llashingiz ham mumkin: Masalan, qaymoq o'rniga smetana yoki qatiq, saryog' o'rniga margarin. Tova doim margarin yoki saryog' bilan yog'lanishi kerak. Agar uning o'rniga pista yog'i yoki paxta yog'ini ishlatsangiz, pirog xamiri o'tirib qoladi.

HO'L MEVALI PISHIRIQ

Kerakli masalliq: 100 gramm saryog', 150 gramm shakar, 2 dona tuxum, 1stakan un va 0,5 choy qoshiqda iste'mol sodasi.

Tayyorlanishi: Avval tuxumning oqi yaxshilab ko'pirtirilib olinadi. Unga shakar qo'shiladi. Boshqa idishda esa tuxum bilan iste'mol sodasi qo'shib, yaxshilab aralastiriladi. Uning ustiga esa yumshatilgan saryog'ni qo'shib, ustidan tuxumning sarig'i bilan aralastiriladi. Oxirida esa ko'pirtirilgan tuxumning oqi qo'shib, un solib, yumshoqroq xamir qoriladi. Yog' surtilgan tovaga xamir solinib, gaz pechiga (o'rta olovda) 30 daqiqaga qo'yiladi. Gaz pechingizdan xabardor bo'lgan holda ho'l mevalarni tayyorlab qo'ying. (Ho'l mevalar: olma, gilos,

olcha, banan kabilardan xohlaganingizni yuvib, maydaroq qilib to'g'rang.) Pirog pishishiga 15 daqiqa qolganda mevalaringizni xamir ustiga terib, ozroq shakar seping va gaz pechida pishishi davom etaversin. Pishgach, har doimgidek dasturxonga torting.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi.

BOLALARI KUYDIRGAN

– Buvi, qarang anuv amakini, – men labimni burib, ko'zimni yumib gapirdim.

– «Assalom», degin amakiga.

– Assalomu alaykum!

– Kim bu?

– Bu- Abduvohidingizning o'g'li, mulla aka. Tuzukmisiz?

– Ko'rib turibsan-ku qanaqaligimni. Yuzim qiyshayib qolgan. Bir ko'zim ochilmaydi.

– Xudo xohlasa, yaxshi bo'lib ketasiz. Boshingizdan ozmuncha tashvishlar o'tdimi?! Opoqim ko'tarolmay o'lib ketdilar... Yurganingizga shukur.

– Ha, qizim. Arslon bo'lib yer tagida yotgandan ko'ra, sichqon bo'lib yer ustida yurgan yaxshiroq. Ammo ba'zan o'limimga rozi bo'lib ketaman.

Buvim yuzi qiyshiq amaki bilan uzoq gaplashib qoldilar. Bunday qaragam, ko'zlari yosh, qandaydir Xayriddin, Sayriddin degan odamlarni gapirayaptilar.

– Biz ham Olloh deganmiz. El qatori yashab o'tdik. O'g'illarim Ollohi boshqacha ekan, tiriklarni o'limga da'vat qiladigan narigi dunyo uchun yashamaydigan.

Mana endi yurishgandir cho'lda g'isht quyib!..

Amaking bitta ko'zlaridan tirqirab yosh oqardi.

– Ularning dunyoga kelganiga pushaymon bo'lib ketaman. Qancha odamlarga zarari tegdi-ya, noinsoflarni. Buzilgan uylar tuzaldi. Nobud bo'lganlar-chi!

Amaki yana Maysara opa haqida ham gapirib, «eri yomon kuydirdi-da», dedi.

– Hammamizni kuydirdi, hammamizni! 16 yil o'tirdi-ya qamoqda! O'n olti yil! Qizimni chaqirib olib, bolangni oldirma, oldirsang, o'ldiraman, deb qo'rqitishlari-chi. Hali Buxoroga, hali Navoiyga erining ortidan qatnab, oltita bola ortirdi! Bolalari ham otasiga tortdi. Endi Sohibi kuydirayapti!

Voy, Sohib hokimni gapirishayapti ular! Qachon ko'chamizga o'sha kishi kelsa, hammamiz uyimizga qochib kirib ketamiz. Ko'zi qip-qizil bu amaki bir marta meni ham boshidan balandga ko'tarib, «otib yuboraymi seni? Nega salom bermay, oldimdan qochib ketayapsan», deb qo'rqitgandi.

Buvim yuzi qiyshiq amakiga yaxshi gaplar aytib, yana menga yaqinlashib, Xoji buvimlarnikiga keta boshladilar...

– Buvi, nega u kishining yuzi qiyshayib qolgan?

– Sen avval menga nega u kishini ko'rsatib, og'zingni qiyshaytirding? Shundan gapir-chi.

– Bilmadim, o'sha amakiga qarab bitta ko'zimni ham yumib oldim.

– Sen unaqa odamlar ustidan kulmagin. Buvang ham kichkinaligida senga o'xshab hunar ko'rsatganlarini aytib beradilar. Senga «o'zlaridan so'ra», devdim-ku! Mayli, o'zim aytib bera qolay!

ORIF QIYSHIQQA QIYSHIQ SALOM

Mahallamizdagilarning hammasiga fe'li, turish-turmushi-yu ko'rinishiga qarab laqabi bilan gapirish odat bo'lgan. Hozirgilarni bilmadim-u, avvallari turshakchilikda to'y deyilsa, hamma Kimyo opoqining uyiga boraverardi. Chunki bu opoqini katta bobong ham turshakchining qizi deb atardi. Ular turshak qilib sotishgan ekan. Orif zamon, G'ani so'lim, Halil kepaklarning laqablari sabab, bola-chaqalarini ham aytaylik, kepaklar, turshakchilar avlodi, deb tanilib

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

ketishgan. Maktabga ketadigan uzun yo'lining ikki chetida qator tol bo'lardi. Buvang Azim garang hassasini do'qillatib choyxonaga ketayotganida tol ortidan chiqib, qo'lini ko'ksiga

qo'yarkan-da, «he, onangni...» deb so'karkan. Qulog'i og'ir chol esa, vaalaykum assalom, ko'p yasha, der ekan. O'rtoqlarining qiqir-qiqir kulgularidan shodlanib, buvang yana boshqa tolning orqasidan chiqib, «endi, he

otangni...» derkan. Chol esa bunga e'tiborsiz, «Mullo bo'lg'in! Vaalaykum assalom!» derkan. Shunday qilib, bu o'yin uzoq davom etibdi. Boshqa bolalar ham buvangga qo'shib, Orif qiyshiqqa labini burib salom berisharkan. Karim oqsoqqa cho'loqlanib kelib salom berisharkan. Bir kuni Azim garang sezgir emasmi, o'zini masxara qilishayotganini bilib qolib, bolalarning oyog'iga tarsillatib hassasi bilan urib ketibdi. Shunday qilib, buvang va uning shumtaka o'rtoqlari

uzoq vaqtgacha oqsoqlanib yurishibdi.

O'LGANLAR KELIB QILADIMI?

– Buvi, endi men ham hech kimni masxara qilmayman. Kecha mast amakini pashsha talab yotgandi. Uni cho'p bilan turtib uyg'otdik. O'sha amaki o'rnidan turib, Abrorni quvlayman deb yiqilib tushdi.

– Amaki bo'lmay o'lsin o'sha Tilab-olgan!

Ismi qara, Tilab-olgan! Urushdan yarimta bo'lib qaytib kelgan Salim chit-takning tilab olgan bolasi u. Ota sho'rlik o'g'liga insof tilay-tilay o'tib ketdi. Onasi esa haliyam yaxshi gapirib, odam bo'lib qolar, deb duo qilib o'tiradi. Boshqa iloji ham yo'q. Kichik o'g'li o'lib qolgan.

– Nega o'lib

qolgan?

– Bilmadim. Shu sirligicha qolib ketdi. O'quvchilik paytimda Xoji buving uzumlar gulini to'kdi, bog'ni xomtok qilinglar, dedilar. Men tok tarashni juda yomon ko'raman. Ishimdan zerikib, shu Tilab-olganlarning bog'iga o'tdim. Sojida opoqim ham tok tarayotgan ekanlar. Ularga salom berib, siz ham tok tarayapsizmi, dedim.

– Men taramsam, o'lganlar kelib taraydimi?

Seskanib ketdim. Hammayoqni tok navdasi chirmab ketgan ishkorni o'liklar bosib ketgandek bo'ldi.

Xoji buving meni chaqirdi:

– Bugun ham shu ishni paysalga solayapsanmi? Tez-tez harakat qilib, loaqal bir tupini tarab qo'y, hozir kech bo'ladi!

YOZILMAGAN KITOR

Umida ABDUAZIMOVA.

Men yana o'z bog'imga kirib, ish bilan mashg'ul bo'ldim. Qancha payt o'tdi, bilmayman, Sojida opoqining «Voy bola-a-am!» degan baqirig'idan qo'rqib ketdim. Hamma do'pir-do'pir qilib ularnikiga chopib qoldi. Eshik oldida «Tez yordam» mashinasi turardi. Hovliga esa Sayfiddin o'g'illarini olib kirib, yotqizib qo'yishgandi.

Sojida xola o'liklarni nega tilga oldilar-a, derdim ichimda, ertalab ishlagani ketgan o'g'illarining o'ligi kirib keldi-ya eshikdan! Shuning uchun yaxshi gaplarni gapirish kerak.

– Yaxshi gap qanaqa bo'ladi, buvijon!

– Yaxshi gap bironing dilini og'ritmaydigan, ko'nglini ko'tarib, o'zini ham ko'tarib yuboradigan bo'ladi. Mana, masalan, amakingning o'rtog'i Tojivoy. Burnida katta qizil xoli bor. Bu xol burnini yanayam katta qilib ko'rsatadi. Bolalar Tojivoy-Xojivoy, deb masxara qilishardi. Oyisi doim yetaklab yurib o'stirdi. Hatto ishga ham olib borib, ishxonasining yonidagi maktabda o'qitdi. Mahalla bolalari uni masxara qilishlariga qarab turmadi. Endi Tojivoy chindan ham Xoji bo'lgan: ota-onasi-yu buvilarini ham Hajga olib bordi. O'zi tarjimon. Bir oy uyda bo'lsa, ikki oy chet elda bo'ladi.

– Buvi, nimaydi, sada-ray-hon-hon...

– Voy bilag'on-ey! «Amakingga o'ylab gapir, chiroyli gapir», deb urishib aytib berganim esingda ekan-da.

– Yana aytib bering.

– Aytmay nima qilayapman, sen bilan gaplashib, almisoqdagi gaplarni eslab, qara, qancha yo'l bosib qo'yibmiz.

SADARAYHONINGIZ...

– Bir podshoh ovqatlanib o'tirganida soqoliga guruch yopishib qolibdi. Yonidagilarning haddi sig'ib aytishi qiyin bo'libdi. Bir sodda odam oxiri chidab turolmabdi-da: «Podshohim, soqolingizga guruch yopishib qolibdi», debdi jiddiy turib. Bu gapdan podshoh o'ziga hamma qaraganini ko'rib, darg'azab bo'libdi-da:

– Jallod!- debdi.

Davrada bir so'zamol, xushchaqchaq inson ham bor ekan. Tezda qo'l ko'tarib:

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan keching... debdi.

– Nima deysan?

– Sadarayhoningizga bulbul qo'nibdi, ruxsat bersangiz, tutib olsam.

– Ruxsat, – debdi shoh va kulib. – Mana bunday aytsa ham bo'larkan-ku, – deb jallodlarni ham kuldirib, ortiga qaytarib yuboribdi. – Shunaqa, gap toshdan og'ir, pardan yengil. Chiroyli so'zlab, chiroyli ishlarga amal qilib yurganlar uzoq va qoqilmay yashaydilar.



(Davomi bor).



Kelajak qanotlari



Lekin bundan 15 yil muqaddam chekka qishloqdagi yosh sportchilar u yoqda tursin, «O'zbekiston qoploni» deya nom olgan Rufat Risqiyevdek mohir bokschimiz ham chet eldagi nufuzli musobaqada qatnashishni orzulasa, «Yigitcha, sizga yo'l bo'lsin?» deyidiganlar bisyor edi. Hozir esa butunlay o'zgacha, qobiliyating, iqtidoring, intilishing bormi, marhamat, keng maydon ham, imkon ham seniki bo'lgan zamonada yashayapmiz. Shundanmi, yosh, umidli sportchilarimiz soni ortgandan ortib boryapti.

O'zining paxtakor-u g'allakorlari, yozuvchi-yu shoirlari, ijodkor-u mirishkorlari bilan respublikaga mashhur bo'lgan Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bugungi kunda mohir sportchilari bilan ham maqtansa arzigudek.

Yaqinda ana shu go'shada bo'lib, Qiziltepa tumani jismoniy tarbiya fani uslubshunosi Omonjon Shoyimov hamrohligida yosh



sportchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishib qaytdik.

-Tumanimiz yoshlarining aksariyati sportsevar o'g'il-qizlardir,-deya faxr bilan so'z boshladi Omonjon aka. - Shuni inobatga olgan holda ular uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratishga intilyapmiz. 2005-yilda davlatimiz tomonidan 1 million so'mlik sport anjomlarining ajratilishi fikrimizning dalilidir. Tumandagi «Qiziltepa sport majmuasi», «Do'stlik» o'yingohi kabi barcha sport majmualarida 20dan ziyod to'garaklar faoliyat ko'rsatyapti. Sport bilan muntazam shug'ullangan bola ham jismonan, ham ma'nan sog'lom kamol topishini to'g'ri anglab yetgan ota-onalarimiz farzandlarini to'garaklarga o'zlarini yetaklab kelishyapti.

Bunday g'amxo'rliklarga javoban yosh sportchilarimiz ham universiadalarda, shahar hamda viloyatlararo musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, tumanimiz sharafiga munosib himoya qilib kelishyapti.

Farzandlarimizda sportga ishtiyoq, havasning bo'lgani yaxshi. Agar ular o'z kasbining ustasi, mohir murabbiyga shogird tushishsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Bu borada tumandagi 7-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabi a'zolari Elyor Tursunov, Farhod Narzullayev, G'ayrat Sevarov, Eldor Hamroyevlarning omadlari chopgan. Chunki ularga tajribali murabbiylar Vali Nodirov va Mehriddin Imomovlar ustozlik qilib

kelishyapti. 1-sonli sport maktabining 1 toifali murabbiysi, sport ustasi respublika toifasidagi hakam Zokir Nosirov hamda 15-maktab murabbiysi

Oybek Orziyevlarning shogirdlari nafaqat viloyatda, balki Farg'ona, Xorazm, Namangan shaharlarida o'tkazilgan respublika miqyosidagi «Umid nihollari» sport musobaqalarida qatnashib, faxrli 1-o'rinni egallab kelishyapti.

Qiziltepaning Barchinoy qizlaridan bo'lmish Munira Xudoyorova murabbiylik qilayotgan «Xudoyor» shotokan karatedo klubining ish boshlaganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Lekin bu maskanga qachon borsangiz, O'zbekiston, Osiyo hamda Jahon chempioni bo'lishni maqsad qilgan bolajonlar bilan gavjum bo'ladi...

«Yurtimizning olis tumani, chekka bir qishlog'ida yashaydigan sportchi hamyurtimiz jahon chempioni bo'libdi», degan xushxabar bugungi kunda bizni quvontirsa quvontiradiki, hayratga solmay qo'ydi. Sababi, mohirlik bobida hech kimdan qolishmaydigan sportchilarimiz o'z mahoratlari orqali O'zbekiston atalmish mustaqil, jannatmakon bir diyor borligini, unda ham zo'r-zo'r sportchilar yashashini dunyoga bir emas, bir necha yuz bor ko'z-ko'zlashdi-da.

-Yaqinda «Men, otam va onam - sportchidir oilam» tanlovida qatnashib, g'olib bo'ldik,-dedi faxr bilan Gulnoza ismli jajjigina qizaloq.

-Tumanimizga kelib zap ish qilibsiz-da,- deya suhbatimizga qo'shildi o'rta yoshlardagi Zokir aka degan inson mamnuniyat bilan.-Yurtboshimiz tashabbuslari bilan barpo etilayotgan zamon talablari darajasidagi sport maydonlarida nafaqat farzandlarimiz, balki o'zimiz ham bemalol sport bilan shug'ullanyapmiz. Har kuni barvaqt turib yuguramiz, badantarbiya mashqlarini qilamiz, so'ngra, xizmatga o'tlanamiz. Ishimizda ham unum bo'lyapti.

-Eng muhimi, farzandlarimizdan, bekorchilikdan zerikib, turli noma'qul ko'chalarga kirib ketmasliklaridan ko'nglimiz to'q. Ularning qayerda, nimalar bilan mashg'ul ekanliklarini yaxshi bilamiz. Bo'sh vaqtlari sermazmun, maroqli o'tyapti...

Tumandagi sport maktablarini ko'zdan kechirib, odamlari bilan suhbatlashib, bu go'shaning yosh-u qarisi sportning haqiqiy ishqibozi ekanliklarini payqadik. Sport bor joyda sog'lom turmush, sog'lom muhit hukmron bo'lishiga yana bir bor amin bo'ldik. Yurtimizdagi boshqa tumanlar, qishloqlar ham qiziltepaliklardan andoza olishsaydi, degan niyatlar bilan qaytdik.

Feruza JALILOVA,
Nodira MIRZAYEVA.



O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
bosh muharrir o'rinbosari)
Sobirjon SHARIPOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 18717
Buyurtma N: J 2659

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin
SHAYADGAROV
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81
144-63-08

Tel/ faks:
(99871) 144-24-45